

# Matematika

## III qism

2



**Repyova I.V.**

**Matematika.** Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 2-sinfi uchun darslik, 3-qism / I.V. Repyova, Y.V. Zemlina. – Toshkent: "Novda Edutainment". 2023. – 104 b.

**Taqrizchilar:**

- N. M. Usmanova –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- O. Sh. Yevstavyeva –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- M.M.Umarova –** Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- M.I.Xujayeva –** Toshkent shahridagi 142-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Shartli belgilari:**



Og'zaki  
topshiriq



Daftarda  
ishlang



Mantiqiy  
topshiriq



Juft bo'lib  
ishlang



Uyga vazifa

**Eslatma:** O'Ichov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalанилди.

## Salom, aziz bolajonlar!

Uchinchi qismda biz geometriya – matematikaning shakllar va ularning xossalariini o'rganuvchi sohasi bilan duch kelamiz. Biz turli shakllarning xossalariini aniqlaymiz, shakllarni bir-biri bilan solishtirishni o'rganamiz. Yangi matematik amal – ko'paytirish bilan tanishamiz. Uning qo'shish bilan qanday bog'langanligini bilib olamiz. Bundan tashqari, siz matematika san'at bilan qanday bog'langanini va matematika kundalik hayotda, muloqotda va mehnat faoliyatida qanday qo'llanilishini bilib olasiz.



## 73. To'g'ri chiziq, nur, kesma



Yondosh mavzu:  
peyzaj.

Chiziq, nuqta,  
kesma, nur, to'g'ri chiziq.




Bir xil harflarni to'g'ri chiziqlar yordamida tutashtiring, bunda to'g'ri chiziqlar bir-biri bilan kesishmasin.

Namuna:




1. Rasmlarni ko'rib chiqing. To'g'ri chiziq, kesma va nurlarda qanday umumiylilik bor? Ular nimalari bilan farqlanadi?




To'g'ri chiziq ikkala tomonidan ham chegaralanmagan.  
Nur bir tomonidan nuqta bilan chegaralangan.  
Kesma ikkala tomonidan nuqta bilan chegaralangan.

2. Chizmadan qanday kesma, nur va to'g'ri chiziqlarni topish mumkin? Ularni aytинг.




3. Daftaringizga rasmda ko'rsatilgani kabi nuqtalarni belgilang. AB to'g'ri chiziq va CD kesma o'tkazing.  
To'g'ri chiziq bilan kesma kesishadimi?



4. Peyzajning xomaki nusxasini tayyorlash uchun rassom 3 kun ishladi. Birinchi kun u 2 h 40 min, ikkinchi kun 2 h 25 min, uchinchi kun 2 h 20 min ishladi. Shu uch kunda u hammasi bo'lib qancha vaqt ishlagan?

5. Rasmda qanday chiziqlar keltirilgan?



6. a) Daftaringizga O nuqtani belgilang. Bu nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

b) Daftaringizga A va B nuqtalarni belgilang. Bu ikki nuqta orqali nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

7. Misollarni yeching va rasmning to'liq bo'limgan, tugallanmagan varianti yoki qismi qanday atalishini bilib oling.

**A**  $300 + 380$

**R**  $600 - 200$

**U**  $180 + 250$

**T**  $470 - 390$

**S**  $185 + 555$

**L**  $698 - 309$

**CH**  $157 + 386$



543	680	389	80	740	430	400	672
-----	-----	-----	----	-----	-----	-----	-----

8. Uch xonali sonlarni o'sib borish tartibida joylashtiring va rasmning xomaki nusxasi yana qanday atalishini bilib oling.

**A**  $(650 - 370) - 250$

**I**  $(900 - 300) + 200$

**E**  $(620 + 150) - 480$

**S**  $(150 + 350) - 140$

**Z**  $850 + (900 - 840)$

**K**  $900 - (140 + 250)$

9. Bir suratni chizish uchun 28 quti, ikkinchi surat uchun esa 12 quti ko'p bo'yq kerak bo'ladi. Ikkinchi surat uchun necha quti bo'yq kerak bo'ladi?

## 74. Yassi sirtlar. Tekislik

Yondosh mavzu:  
naturmort.


Yassi shakl,  
perimetrr.



Sudoku

4		2	3
	3		1
1		3	
3	4		2


1. Bu yerda qanday hajmli jismlar tasvirlangan?



**Yassi sirt – bu bukilmagan sirt.**

**Tekislik – bu turli tomonlarga cheksiz davom etuvchi yassi sirt.**

2. Yassi sirt uchburchaklardan hosil qilindi.
- Turli rangdagi uchburchaklardan nechtadan kerak bo'ladi?
  - Bu sirtga hammasi bo'lib nechta uchburchak kerak bo'lgan?
  - Och qizil uchburchak sariq rangdagi uchburchaklardan nechta ko'p?
  - Bu yerda nechta kvadrat tasvirlangan?



3. Rasmlarda tekislik ko'p hollarda qog'oz varagi ko'rinishida tasvirlanadi. Ushbu shaklni daftaringizga chizib ko'ring.



4. Naturmortli rasmning bo'yi 3 dm 5 cm, eni esa undan 1 dm qisqa. Rassom rasmni yupqa ramkaga joylashtirishni xohlaydi. Unga uzunligi 1 m bo'lgan reyka yetadimi?



5. Rasm chizish uchun ishlataladigan bo'rlar solingen kichkina qutichada 36 rangdagi, o'rtacha qutichada esa undan 12 ta ko'p rangdagi bo'rlar bor. Agar katta qutichada kichkina va o'rtacha qutichalarda birgalikda qancha bo'lса, shuncha bo'r bo'lса, katta qutichada necha rangdagi bo'r bor?



6. Ifodalarning qiymatlarini kamayish tartibida joylashtiring va rangli bo'rlarda rasm chizish usuli qanday atalishini bilib oling.

A	$250 + 350$	L	$120 + 190$
S	$690 - 120$	E	$900 - 550$
P	$800 - 70$	T	$240 + 180$

7. Hisoblang.

5 yuzl. 4 o'nl. 2 birl. + 3 yuzl. 9 o'nl. 8 birl.  
8 yuzl. 4 o'nl. 3 birl. - 2 yuzl. 8 o'nl. 7 birl.  
4 yuzl. 3 birl. + 2 yuzl. 9 o'nl.  
8 yuzl. - 4 yuzl. 2 o'nl. 3 birl.




8. Aziza gullar aks etgan naturmort chizdi. U 7 ta lolaqizg'aldoq, ulardan 3 ta kam moychechak va 8 ta ko'p atirgul rasmini chizdi. Aziza hammasi bo'lib nechta gul rasmini chizgan?


## 75. Burchak. Burchak turlari

Yondosh mavzu:  
grafika.

O'tkir, to'g'ri,  
o'tmas burchaklar.



1. AB va AC kesmalar tekislikni nechta qismga bo'ladi?




**Burchak – bu tekislikning bir nuqtadan chiquvchi ikki nur orasidagi qismi.**

**AB va AC nurlar – burchak tomonlari.**


**A nuqta – burchakning uchi.**

**Belgilanishi:  $\angle BAC$  yoki  $\angle A$ .**



2. Bir varaq qog'oz oling.

Uni teng ikki buklang, keyin yana teng ikki buklang.  
Hosil bo'lgan burchak to'g'ri burchak deb ataladi.



3. To'g'ri burchakni topish uchun

goniya (to'g'ri burchakli chizg'ich) dan foydalilanildi. Goniya yordamida berilgan burchaklardan qaysilari to'g'ri burchak ekanini aniqlang.



4. Ko'rgazmada 118 ta rasm namoyish etildi. Ulardan 48 tasi rangli qalamlar bilan bajarilgan, ulardan 14 ta kam rasm oddiy qalamda, qolganlari esa rangli bo'rlarda bajarilgan. Nechta eksponat rangli bo'rlarda chizilgan?





5. Matndan noma'lum kattalikni toping.


a) Malikada  $x$  ta rangli qalam bor edi. U qalamlardan 8 tasini yo'qotdi. Keyin yana 12 ta rangli qalam sotib oldi. Endi unda 26 ta qalam bo'ldi.

b) Ko'rgazmada  $x$  kishi bor edi. Bir soat ichida ko'rgazmaga 58 kishi keldi, 47 kishi esa qaytib ketdi.

Bir soatdan keyin ko'rgazma zallarida 117 kishi bo'ldi.



6. Agar burchak to'g'ri burchakdan kengroq bo'lsa, u o'tmas burchak deb ataladi. Agar burchak to'g'ri burchakdan torroq bo'lsa, u o'tkir burchak deb ataladi. Quyidagi burchaklar orasidan o'tkir va o'tmas burchaklarni toping.



7. Rasmdagi qaysi shakllar sizga ma'lum? Nechta doira, uchburchak va to'rburchaklar tasvirlanganligini sanang va yozing. "Ko'z bilan chamlab", yuqorigi to'rburchakning burchaklari qanday ekanini aniqlang. Goniya yordamida o'zingizni tekshiring.



8. Tenglamalarni yeching.

$$x + 245 = 854$$

$$670 - y = 267$$

$$z - 563 = 179$$



9. Ixtiyoriy uchburchak yasang. Uning tomonlari uzunliklarini o'lchang va perimetrini toping. Bu uchburchakning burchaklari qanday?

## Mundarija

Muqaddima.....	3
73. To'g'ri chiziq, nur, kesma. ....	4
74. Yassi sirtlar. Tekislik .....	6
75. Burchak. Burchak turlari .....	8
76. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat. ....	10
77. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning burchaklari xossalari.....	12
78. To'g'ri burchak yasash.....	14
79. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning tomonlari xossalari.....	16
80. Kataq qog'ozga shakl yasash .....	18
81. Yuz tushunchasi.....	20
82. Kataq qog'ozdag'i yuzni hisoblash.....	22
83. Yuz o'Ichov birliklari .....	24
84. Masalalar yechish.....	26
Mavzu bo'yicha yakuniy dars. ....	28
85. Ko'paytirish tushunchasi.....	30
86. To'g'ri to'rtburchakning yuzi .....	32
87. Ko'paytirish komponentlari.....	34
88. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi.....	36
89. Ko'p xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish.....	38
90. Bir xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish.....	40
91. 2 soniga ko'paytirish.....	42
92. 2 sonini ko'paytirish va 2 ga ko'paytirish.....	44
93. Sonni bo'lish. Bo'lish komponentlari .....	46
94. Sonni 2 ga bo'lish.....	48
95. Sonni 2 ga bo'lish.....	50
96. Juft va toq sonlar.....	52
97. 3 sonini ko'paytirish va 3 ga ko'paytirish.....	54

<b>98.</b> Sonni 3 ga bo'lish.....	56
<b>99.</b> 4 sonini ko'paytirish va 4 ga ko'paytirish.....	58
<b>100.</b> Sonni 4 ga bo'lish.....	60
<b>101.</b> 5 sonini ko'paytirish va 5 ga ko'paytirish .....	62
<b>102.</b> Sonni 5 ga bo'lish.....	64
<b>103.</b> Bir necha marta orttirish .....	66
<b>104.</b> Bir necha marta kamaytirish .....	68
Mavzu bo'yicha yakuniy dars.....	70
<b>105.</b> 6 sonini ko'paytirish va 6 ga ko'paytirish .....	72
<b>106.</b> Sonni 6 ga bo'lish.....	74
<b>107.</b> 7 sonini ko'paytirish va 7 ga ko'paytirish .....	76
<b>108.</b> Sonni 7 ga bo'lish.....	78
<b>109.</b> 8 sonini ko'paytirish va 8 ga ko'paytirish .....	80
<b>110.</b> Sonni 8 ga bo'lish .....	82
<b>111.</b> 9 sonini ko'paytirish va 9 ga ko'paytirish .....	84
<b>112.</b> Sonni 9 ga bo'lish.....	86
<b>113.</b> Ko'paytirish jadvali .....	88
<b>114.</b> Bo'lish bilan ko'paytirish orasidagi bog'lanish.....	90
<b>115.</b> Bo'luvchilar va karralilar.....	92
<b>116.</b> Masalalar yechish .....	94
Mavzu bo'yicha yakuniy dars .....	96
Mantiqiy masalalar.....	98

***veb-saytimiz: Zokirjon.com***  
***Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun  
kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.***

## ***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeraga  
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram  
orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445  
izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.  
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob  
beriladi***

***2-sinf matematika III qism kitobini to‘liq holda  
olish uchun telegramdan yozing.***

***Telegram kanalimiz:***

***@Maktablar\_uchun\_hujjatlar***



### **DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik  
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin  
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga  
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**